

4–DARS. TEJAMKORLIK VA ONGLI ISTE'MOL

Tejamkorlik va ongli iste'mol – moliyaviy savodxonlikning asosiy ko'nikmalaridir. Ular o'quvchilarda kelajakka ishonch, rejalashtirish qobiliyati va ongli tanlov qilishni shakllantiradi.

Ko'plab o'quvchilar jamg'armani “faqat kattalarga tegishli ish” yoki zerikarli narsa deb hisoblashadi. Aslida esa, jamg'arma – bu erkinlik, haqiqatan muhim narsani sotib olish imkoniyati, kutilmagan holatlarga tayyor turish va kredit yoki birovning puliga bog'liq bo'lmaslik deganidir.

Nega jamg'arish muhim?

Jamg'arma bir nechta vazifani bajaradi:

- **Maqsadga erishish** – yig'ilgan mablag' orzuni tezroq amalga oshirish imkonini beradi.
- **Moliyaviy xavfsizlik** – kutilmagan xarajatlarda noqulay ahvolga tushmaslik.
- **Nazorat hissi** – o'quvchi o'z kelajagini boshqarayotganini anglaydi.

Misol: o'quvchi har hafta qo'shimcha daromadidan 50 000 so'm ajratib borgan. Uch oy ichida u xalqaro olimpiadaga borish xarajatlarini o'zi to'lay oldi.

Moliyaviy yostiqcha

Moliyaviy yostiqcha – bu kutilmagan vaziyatlarda foydalaniladigan zaxira mablag'. Bu hattoki o'quvchilar uchun ham dolzarb:

- telefon yoki noutbukni ta'mirlash;
- rejadan tashqari to'garak yoki safar xarajatlarini to'lash;
- tanlovda ishtirok etish uchun badal to'lash.

Misol: o'quvchi oilaviy biznesdagi daromadidan 20% ni jamg'arib borgan. Yoshlar forumiga borish imkoniyati tug'ilganda, yo'l va yashash xarajatlarini o'zi qoplay oldi.

Qanday qilib jamg'arish jarayonini qiziqarli qilish mumkin?

O'quvchiga jamg'arish jarayoni qiziqarli bo'lsa, sarmoya muvaffaqiyatli bo'ladi: Buning uchun

- turli maqsadlar uchun konvertlar yoki elektron “jamg‘arma qutilari”dan foydalanish;

- jarayonni vizuallashtirish (grafiklar, jadvallar, chek–listlar) mumkin.

Misol: bir o‘quvchi professional kamera olishni orzu qiladi. U 12 bosqichli sxema chizdi, har bir bosqichda jamg‘argan mablag‘ini belgilab bordi va yakunda kamera sotib oldi hamda fotosuratchi bo‘lib qo‘shimcha daromad ola boshladi.

“Kerak” yoki “xohlayman”: iste’molda ustuvorlikni aniqlash

O‘quvchilar quyidagilarni farqlashni o‘rganishi kerak:

- **Kerak** – o‘qish, sog‘liq, xavfsizlik uchun zarur bo‘lgan narsalar.
- **Xohlayman** – yoqimli, lekin muhim bo‘lmagan narsalar.

Topshiriq: o‘quvchida 2 500 000 so‘m bor. U IELTS imtihonini topshirish yoki yangi urfdagi krossovkalarni xarid qilish orasidan tanlashi lozim. Muhokama orqali “kerak” va “xohlayman” har doim ham bir–biriga mos kelmasligini tushunib yetadi.

Kelajak uchun sarmoya

O‘quvchi uchun sarmoya – bu aksiyalar yoki kriptovalyuta emas, balki:

- ta’lim,
- yangi ko‘nikmalar,
- sog‘liqdir.

Misol: bir yosh juftlik barcha jamg‘armasini to‘yga sarfladi va keyin qarzlar sabab chetga ishlashga ketdi. Agar ular ta’limga yoki biznesga sarmoya kiritganida, o‘z uylarida qolib, o‘zlari uchun ishlashlari mumkin edi.

Ongli iste’mol

Bu faqat haqiqatan kerak bo‘lgan va foydalaniladigan narsani sotib olish odatidir.

Misol: yangi kurtka sotib olishdan oldin o‘quvchi garderobini ko‘zdan kechirdi va unda yetarli issiq kiyimlar borligini anglab yetdi. Pullarni esa 3D–modellashtirish kurslariga yo‘naltirdi.

Biznesning ijtimoiy mas’uliyati (BIM)

Moliyaviy savodxonlik faqat shaxsiy qarorlar bilan emas, balki barqaror iqtisodiyot tamoyillarini tushunish bilan ham bog‘liq.

Xalqaro biznesning ijtimoiy mas‘uliyati (BIM) amaliyoti quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. **Etik boshqaruv** – halollik va xodimlar huquqlarini himoya qilish.
2. **Ekologik barqarorlik** – “yashil” texnologiyalar.
3. **Ijtimoiy investitsiyalar** – ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat.
4. **Liderlik qadriyatlarda namoyon bo‘ladi** – jamiyat manfaatlarini qisqa muddatli foydadan ustun qo‘yish.

Bu nima uchun muhim?

- ishonch va obro‘ni oshiradi;
- iste’dodlarni jalb qiladi;
- rivojlanish uchun barqaror ekotizim yaratadi.

Jamg‘arma va ongli iste’mol – bu:

- **erkinlik** (qarzlarga bog‘liq bo‘lmaslik),
- **mas‘uliyat** (kutilmagan holatlarga tayyorlik),
- **kelajak** (ta’lim va sog‘liqqa investitsiya).

“Jamg‘armalar tanlash erkinligini beradi – va bu bebaho resursdir” – Syuzan Orman.